Inson huquqlari bo'yicha ta'lim va tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini yanada oshirish maqsadida 2021 yil 7 iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasidagi Jahon ta'lim dasturining to'rtinchi bosqichini amalga oshirish bo'yicha Milliy komissiyani tashkil etish to'g'risida"gi F-5664-sonli farmoyishi qabul qilindi. Mazkur farmoyishga muvofiq Milliy komissiya zimmasiga bir oy muddatda xalqaro shartnomalar normalari va standartlari, BMTning huquqni himoya qiluvchi tuzilmalari tavsiyalari hamda o'zbek jamiyatining tarixiy, milliy va madaniy qadriyatlarini inobatga olgan holda, inson huquqlari sohasidagi Milliy ta'lim dasturini ishlab chiqish yuklatildi.

Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz Milliy komissiyaning Ishchi organi sifatida belgilandi. Ishchi organ Milliy ta'lim dasturini ishlab chiqish maqsadida tizimli faoliyat olib bordi. Jumladan:

O'zbekiston Respublikasining Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta'lim dasturi hamda uni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish maqsadida Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi boshchiligidagi vazirlik va idoralar mutaxassislaridan iborat Ishchi guruhi shakllantirildi.

2021 yil 21 iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining kichik majlislar zalida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 7 iyundagi "O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasidagi Jahon ta'lim dasturining to'rtinchi bosqichini amalga oshirish bo'yicha Milliy komissiyasini tashkil etish to'g'risida"gi F-5664-sonli farmoyishida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga bag'ishlangan Milliy komissiya yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda Milliy komissiya a'zolari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalari rektorlari, O'zbekiston Respublikasining BMTdagi Doimiy vakolatxonasi,

O'zbekiston Respublikasining YuNESKOdagi Doimiy vakolatxonasi, O'zbekiston Respublikasining Jeneva shahridagi BMT bo'linmasi va boshqa xalqaro tashkilotlar Doimiy vakolatxonalari, nodavlat notijorat tashkilotlar va OAV vakillari ishtirok etdi. Mazkur yig'ilishda Milliy komissiya a'zolari, vazirlik, idora va tashkilotlarga Milliy ta'lim dasturiga taklif berish bo'yicha vazifa yuklatildi.

Milliy ta'lim dasturi hamda uni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ga 32 ta vazirlik, idora va tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda xalqaro tashkilotlar vakolatxonalaridan taklif va tavsiyalar kelib tushdi.

(19 ta vazirlik, idora va tashkilotlar (Bandlik va mehnat munosabatlari, Moliya, Sog'liqni saqlash, Investitsiya va tashqi savdo, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish, Madaniyat, Turizm va sport, Innovatsion rivojlanish vazirliklari, Yoshlar ishlari agentligi, Ta'lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi, Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi, Yoshlar ittifoqi, Sudyalar Oliy Kengashi, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Milliy universitet, Pedagogika universiteti, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, EOAVMA) IHMM xatiga javob bermadilar va o'z takliflarini taqdim etmadilar).

Kelib tushgan barcha takliflar o'rganib chiqildi, mazkur taklif va tavsiyalar asosida Milliy ta'lim dasturi va "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi.

Ishlab chiqilgan hujjat loyihalari Ishchi guruh a'zolariga yuborildi va ular bilan birgalikda joriy yilning 7 sentyabrida, 23 noyabrida onlayn shaklda ushbu hujjat loyihalarining muhokamasi bo'lib o'tdi, Milliy ta'lim dasturi va uni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" Ishchi guruhining taklif va mulohazalari asosida yanada takomillashtirildi.

O'zbekiston Respublikasining Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" 7 ta asosiy yo'nalishdan iborat:

1. Yoshlarning inson huquqlari sohasidagi xabardorligini oshirish yo'nalishida:

10 dekabr – Xalqaro inson huquqlari kuni munosabati bilan (maktab, litsey, kollej, texnikum, oliy ta'lim muassasalarida) "Inson huquqlari" o'n kunligi o'tkazish;

Umumta'lim maktablarida inson huquqlari o'qitilishini joriy etish;

Professional ta'lim tizimida inson huquqlari o'qitilishini joriy etish;

Oliy ta'lim tizimida ta'lim sohasini inobatga olgan holda "Inson huquqlari", "Ayollar huquqlari", "Bola huquqlari" fanini joriy etish;

"Inson huquqlariga oid xalqaro huquq" mutaxassisligi bo'yicha qo'shma magistratura faoliyatini takomillashtirish;

"Inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi ta'lim va innovatsiyalar" yillik Milliy tanlovini o'tkazish;

"Inson huquqlari – kelajak avlodlar uchun" mavzusida o'quvchi va talabalar o'rtasida yozgi maktab, olimpiada va tanlovlarni tashkil etish va o'tkazish;

"Yoshlar huquq va erkinliklar haqida: baho, talab va muammolar" mavzusida ijtimoiy tadqiqot o'tkazish;

Tibbiyot sohasidagi oliy ta'lim muassasalari uchun "Inson huquqlari" bo'yicha o'quv dasturini ishlab chiqish va joriy qilish kabi tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

2. Davlat xizmatchilari uchun inson huquqlari, gender tengligi sohasida ta'lim tizimini takomillashtirish yo'nalishida:

Davlat xizmatchilarini inson huquqlari, gender tenglikni ta'minlash sohasida malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslari tashkil etish;

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida inson huquqlari, gender tenglik masalalari bo'yicha o'quv kurslari (soatlari) joriy qilish;

Tezkor qidiruv, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov faoliyatini amalga oshiruvchi organlar va jazoni ijro etish muassasalari xodimlari uchun qiynoqqa qarshi kurashish bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish;

Inson huquqlari axborot-resurs markazi ("Inson huquqlari uyi")ni tashkil etish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida "Inson huquqlari axborot-resurs markazi" ("Inson huquqlari uyi")ni tashkil etish;

O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalariga oid to'plamlarni davlat tilida chop etish;

Oliy ta'lim muassasalarida "Inson huquqlari" kafedrasini tashkil qilish;

Gender tenglik va ayollarning huquq va imkoniyatlarini ta'minlash bo'yicha davlat organlari xodimlari uchun onlayn kurslarini tashkil etish kabi tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

3. Inson huquqlari sohasida pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash yo'nalishida:

Pedagoglarni qayta tayyorlash tizimida "Inson huquqlari" fanini joriy qilish;

Toshkent davlat yuridik universiteti magistraturasi bosqichida pedagog-huquqshunos yo'nalishini tashkil etish bo'yicha choralar ko'rish;

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida pedagog-huquqshunos fakultetini tashkil etish;

"Inson huquqlari" ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'limni takomillashtirish;

Inson huquqlarining dolzarb masalalari bo'yicha amaliy, fundamental va innovatsion ilmiy loyihalar tanlovini e'lon qilish;

Inson huquqlarining dolzarb masalalari bo'yicha mutaxassislarni xorijda malakasini oshirish va stajirovka qilish, shuningdek xorijiy oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarning magistratura, doktoranturasida yosh mutaxassislarni o'qitish tizimini takomillashtirish kabi tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

4. Aholining izolyatsiyadagi va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari o'rtasida inson huquqlari sohasida o'qitish tizimining samaradorligini oshirish yo'nalishida:

Nogironlar huquqlari, xalqaro standartlar bo'yicha Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari xodimlarining salohiyatini oshirish yuzasidan seminar-treninglar tashkil etish;

Maxsus maktab internatlari, kollejlari talabalarining nogironlar huquqlari va Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konventsia qoidalari bo'yicha seminar-treninglar tashkil etish;

Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi va uning hududiy bo'limlari xodimlari uchun "Inson huquqlari", "Ayollar huquqlari" va "Bolalar huquqlari" bo'icha bilim va malakasini oshirish maqsadida o'quv kurslari tashkil etish;

"Voyaga yetmaganlar odil sudlovi" mavzusida sudyalalar uchun onlayn treninglar tashkil etish;

Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarlikni oldini olish masalalari bo'yicha inspektorlar uchun onlayn treninglar tashkil etish kabi tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

5. Inson huquqlari sohasida ta'lim bo'yicha fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshirish yo'nalishida:

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan "Inson huquqlari bo'yicha ta'lim" yo'nalishida davlat granti va ijtimoiy buyurtmalar tanlovini e'lon qilish;

O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'lari hisobidan "Inson huquqlari bo'yicha ta'lim" yo'nalishida grant tanlovi e'lon qilinishini ta'minlash;

Inson huquqlari ta'limi sohasida fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda turkum seminar, trening, davra-suhbatlari o'tkazish;

Tadbirkorlar uchun "Biznes va inson huquqlari" o'quv kurslarini tashkil etish;

O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi a'zolari uchun "Inson huquqlari" bo'yicha o'quv kurslari tashkil etish;

Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasida inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlari masalalarida o'quv kurslari tashkil etish kabi tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

6. Zamonaviy texnologiyalar, badiiy asarlar, ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda inson huquqlari sohasida ta'lim va tarbiyani mustahkamlash tizimining samardorligini oshirish:

Maktabgacha ta'lim tizimida multimedia resurslari, interaktiv o'yinlar orqali inson huquqlari, bola huquqlari bo'yicha ta'limni joriy etish;

Inson huquqlari bo'yicha ta'lim sohasiga oid ijtimoiy video, audioroliklar yaratish;

O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasidagi ta'lim va tarbiyani mustahkamlash, inson huquqlari milliy tizimi haqida turkum radio va teledasturlar, ko'rsatuvlar tashkil etish;

Oliy harbiy ta'lim muassasalarida o'quv va tarbiya jarayonida foydalanish uchun tematik videoroliklar ishlab chiqish;

Inson huquqlari sohasida ta'lim olish bo'yicha ecourse.nhrc.uz elektron platformasini takomillashtirish;

"Jamoatchilik fikrini o'rganish jarayonida inson huquqlariga rioya etilishini monitoring qilish" mavzusida xalqaro konferentsiya o'tkazish kabi tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

7. Inson huquqlari bo'yicha ta'lim sohasida xalqaro hamkorlik:

"Yoshlar o'rtasida va yoshlar uchun inson huquqlari bo'yicha ta'limning rivojlanishiga ko'maklashish" loyihasini amalga oshirish;

BMT shafeligida "Inson huquqlari bo'yicha ta'lim" Global forumini tashkil etish va o'tkazish;

BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti hamda boshqa xalqaro tashkilotlarning inson huquqlari bo'yicha nashrlarini davlat tilida chop etish;

BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti hamda boshqa xalqaro tashkilotlar, xorijiy tashkilotlar tomonidan o'tkaziladigan o'quv kurslar, seminar, konferentsiya va davra suhbatlarda ishtirok etish;

Sudyalar ishtirokida "Odil sudlovni amalga oshirishda xotin-qizlar huquqlarining ta'minlanishi" mavzusida yozgi maktabni tashkil etish;

BMTning Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha Markaziy Osiyodagi mintaqaviy vakolatxonasi bilan hamkorlikda "Adolat uchun ta'lim", "Hayotga qo'shil" (Doxa deklaratsiyasini amalga oshirish bo'yicha Global dastur Line up Live up) loyihalarini bosqichma-bosqich tadbir etish kabi tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Xorijiy ta'lim, ilmiy va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda ta'lim dasturlari, o'quv kurslari, ilmiy-tadqiqot va amaliy loyihalarni tashkil etish.

Keng jamoatchilik vakillarining takliflari asosida Milliy ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" loyihasini yanada takomillashtirish maqsadida loyiha Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining rasmiy sahifasiga joylashtirildi.

Jamoatchilik muhokamasi joriy yilning 15 dekabriga qadar davom etadi. Barcha fuqarolar va jamoatchilik vakillari Milliy ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" loyihasi yuzasidan o'z taklif va mulohazalarini info@nhrc.uz elektron pochta manzili orqali yuborishlari mumkin.

Hurmatli konferentsiya ishtirokchilari bugun yuqorida ta'kidlab o'tgan Milliy ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xarita"sining muhokamasi bo'lib o'tadi.

Sizning fikr-mulohazalaringiz, taklif va tavsiyalaringiz biz uchun juda muhim. Mazkur muhokamalarda faol ishtirok etishingizni so'rab qolaman.

E'tiboringiz uchun rahmat!



Haydarali Yunusov,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
YuNESKOning "Xalqaro huquq va inson huquqlari"
kafedrası dotsenti

Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha yangi strategiyasida inson huquqlari ta'limi masalasi

Yevropa Ittifoqi (Yel) va Markaziy Osiyo respublikalari (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston) muhim o'zaro manfaatdorlikka asoslangan uzoq yillik munosabatlar tarixiga ega.

Yevropa Ittifoqining 2007 yilgi Markaziy Osiyo bo'yicha strategiyasi Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo o'rtasida hamkorlikning misli ko'rilmagan darajaga yetishiga yordam berdi. Yevropa va Osiyo chorrahasida joylashgan Markaziy Osiyoning strategik geografik o'rni, mintaqaning Yevropa Ittifoqi energiya importidagi ulushi, 70 millionlik iste'mol bozori, shuningdek Yevropa Ittifoqining mintaqada barqaror vaziyat hukm surishidan manfaatdorligi Markaziy Osiyoning Yel uchun tobora muhim sherikka aylanishiga sabab bo'ldi.

Mintaqada sodir bo'layotgan bugungi kundagi o'zgarishlarning ayrim jihatlari Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Mintaqadagi islohotlar jarayoni Yevropa Ittifoqining siyosiy e'tirofiga sazovor bo'lishi bilan bir qatorda modernizatsiyalash jarayonini Yevropa Ittifoqi tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga ham yo'l ochmoqda. Mintaqaviy hamkorlikning yangi sur'atlari 2018 yilning mart oyida Ostona bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining birinchi norasmiy sammitida o'z aksini topdi. Sammitda umumiy muammolarni birgalikda hal qilishda Yevropa Ittifoqi tajribasining muhimligi ta'kidlandi.

Yevropa va Osiyo o'rtasidagi bog'liqlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yangi sa'y-harakatlar Yevropa Ittifoqining barqaror aloqalar o'rnatishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirdi. Markaziy Osiyo va Afg'oniston o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash Yevropa Ittifoqining qo'shni mamlakatda tinchlikni ta'minlashga qaratilgan harakatlari uchun yangi parametrlarni belgilab berdi. Bundan tashqari, Markaziy Osiyo davlatlarining global va mintaqaviy jarayonlarda yanada faol ishtirok etish istagini ifodalagan yangi ambitsiyalari Yevropa Ittifoqi bilan umumiy maqsadlar uchun hamkorlik qilish imkoniyatlarini oshirdi.

Yevropa Ittifoqining mintaqadagi ishtiroki respublikalarning bir qator iqtisodiy muvaffaqiyatlariga asoslanmoqda. Markaziy Osiyo mamlakatlari Yevropa Ittifoqini yetakchi donor, siyosiy va iqtisodiy islohotlar jarayonida ishtirok etuvchi sherik sifatida ko'rishmoqda. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi mintaqa davlatlarining jahon savdo tizimiga integratsiyalashuviga xizmat qilishi bilan birgalikda samarador investitsiyalar va zamonaviy texnologiyalar manbasi hamda mintaqa davlatlari o'zaro hamkorligining homiysi bo'lishi mumkin.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi ijobiy o'zgarishlar va global miqyosdagi yangicha voqelikdan kelib chiqqan holda 2019 yil 17 iyunda Yevropa Ittifoqi Tashqi ishlar vazirlar kengashi tomonidan Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha yangi strategiyasi qabul qilindi.

Ushbu strategiya Markaziy Osiyoning barqaror iqtisodiy va siyosiy, rivojlanayotgan va o'zaro chambarchas bog'langan mintaqaga aylanishini ko'zda tutuvchi mustahkam, zamonaviy va keng qamrovli sherikchilikni o'rnatishni maqsad qiladi. Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish uchun Yel mintaqada amalga oshirayotgan sa'y-harakatlariga, bundan tashqari, Yevropa Ittifoqining tashqi va xavfsizlik siyosati uchun Global strategiyasi, Taraqqiyot bo'yicha yangi Yevropa Konsensusi, Yevropa va Osiyoni bog'lash bo'yicha Yevropa Ittifoqi strategiyasi hamda Yevropa Ittifoqining Afg'oniston bo'yicha strategiyasi kabi boshqa bir qator strategiyalarga tayanadi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030 yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari Kun tartibiga asoslanadi.

Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan ularning ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlari va xavfsizligiga ta'sir qiladigan qiyinchiliklarni oldindan ko'rish hamda ularni bartaraf etish, islohotlar va modernizatsiyalashda ishtirok etish uchun sherikchilik qiladi.

Yangi strategiyaga muvofiq, Yevropa Ittifoqi demokratiya, inson huquqlari va qonun ustuvorligini targ'ib qiladi, iqlim bo'yicha Parijda qabul qilingan majburiyatlarni bajarish hamda transchegaraviy ekologik muammolarga qarshi kurashish va ularni muammo emas, balki imkoniyatlarga aylantirish uchun hamkorlikni faollashtiradi. Shuningdek, migratsiya sohasidagi hamkorlik ham jadallashadi.

Markaziy Osiyo davlatlari va jamiyatlarida barqarorlikni mustahkamlash Yevropa Ittifoqining manfaatlari doirasidadir. Bu maqsadga erishish uchun mazkur davlatlarga qaratilgan tashqi va ichki bosimlarni aniqlash va oldini olish, globallashuv, yuqori demografik o'sish, iqlim o'zgarishlari, atrof-muhit zaharlanishi, suv va energiya manbalarini ortiqcha ekspluatatsiya qilish hamda ishchi kuchining chiqib ketishi va xavfsizlikka qaratilgan yangi tahdidlar natijasida yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarni yengib o'tish qobiliyatini mustahkamlash zarur. O'zaro daxldorlik hissi tobora ortib borayotgan va umumiy yashash tarzining yaxshilanishiga intilayotgan Markaziy Osiyo yoshlari uchun yangi istiqbollarni ochish bilan bir qatorda xotin-qizlar huquqlarini kengaytirish Yevropa Ittifoqi uchun ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

Demokratik institutlarni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kengaytirish, yanada inklyuziv siyosiy va iqtisodiy boshqaruv tuzilmalarini yaratish, qonun ustuvorligini ta'minlash, hukumat institutlari oldida javobgarlikni oshirish va inson huquqlarini hurmat qilishga erishish Markaziy Osiyo mintaqasining muvaffaqiyatli barqaror rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. Shu tariqa, inson huquqlariga hurmat Yevropa Ittifoqining mintaq davlatlari bilan ikki tomonlama munosabatlarining muhim elementi bo'lib qoladi.

Yevropa Ittifoqi xalqaro standartlarga muvofiq so'z erkinligi (jumladan, ommaviy axborot vositalari plyuralizmi), uyushmalarga uyushish erkinligi, ayollar huquqlari, bolalar va ozchilik huquqlari, kamsitishga qarshi kurash, shuningdek qiynoqlarning oldini olish va ularga barham berish yo'lidagi islohotlarni qo'llab-quvvatlashni davom ettiradi. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi ba'zi sheriklik aloqalarini, jumladan, "Inson huquqlari sohasida yaxshi xotiralar" (Good Human Rights Stories Initiative) tashabbusi doirasida hamkorlikni yo'lga qo'yishga intiladi.

Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyo davlatlarini inson huquqlari sohasida BMTning shartnomaviy tuzilmalari, agentliklari va maxsus protseduralari bilan yanada yaqin hamkorlik qilishga undaydi. Bu esa, o'z navbatida, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha kengashi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Uchinchi qo'mitasi kabi ko'p tomonlama inson huquqlari forumlarida hamkorlikni osonlashtiradi. U mintaqadagi mamlakatlarga taqdim etilishi mumkin bo'lgan Barqaror rivojlanish va oqilona boshqaruv uchun Maxsus rag'batlantirish tizimi (Special Incentive Arrangement for Sustainable Development and Good Governance) (GSP+)dan foydalangan holda xalqaro inson huquqlari va mehnat huquqining asosiy standartlari bo'yicha yirik xalqaro konventsia va qarorlarni ratifikatsiya qilish hamda ularni amalga oshirishda hamkorlik qiladi.

Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha yangi strategiyasida davlat boshqaruvi sohasida qarorlar qabul qilish jarayonida fuqarolik jamiyatining ishtirokiga katta e'tibor qaratilgan. Yevropa

Ittifoqi inson huquqlari himoyachilari, jurnalistlar, mustaqil kasaba uyushmalari va ish beruvchilar tashkilotlarining erkin va xavfsiz ishlashini ta'minlaydigan fuqarolik jamiyatiga qulay siyosiy va huquqiy muhitni yaratishda yordam qo'lini cho'zadi. Bu esa, o'z navbatida, fuqarolik jamiyati va barcha darajadagi rahbarlik organlari o'rtasida muloqot va hamkorlikni osonlashtiradi.

Yevropa Ittifoqi davlat institutlarining fuqarolar oldida javobgarligini oshirish, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan demokratiya, qonun ustuvorligi va oqilona boshqaruv kabi qadriyatlarni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlarini kuchaytiradi. Yel adolatli va oshkora saylov jarayonlarini qo'llab-quvvatlashda davom etadi. Bu adliya tizimining mustaqilligi va samaradorligini oshirish uchun huquq va sud sohalarida, xususan, Yevropa Kengashi tashkiloti bilan hamkorlikni kengaytiradi. Mintaqada keng tarqalgan illat – korruptsiyadan qutulishni xohlovchi, o'z qonunchiligiga va ma'muriy tizimiga kerakli o'zgartirishlar kiritishni hamda mustaqil nazorat organlarini kuchaytirishni istagan mamlakatlarga Ittifoq mazkur sohalaridagi o'z tajribalaridan kelib chiqqan holda ko'mak beradi.

Ko'p sohalarida, jumladan, radikallashtirishdan tortib xususiy sektorni rivojlanishigacha bo'lgan sohalarida ijobiy ta'sirini hisobga olgan holda Yevropa Ittifoqi Birlashgan Millatlar Tashkilotining ayollar, tinchlik va xavfsizlikka oid dasturini, gender tenglikka erishish, shuningdek ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotda xotin-qizlar imkoniyatlarini kengaytirish tashabbusini ilgari suradi. Yevropa Ittifoqiga ko'ra, "Hamisha e'tibor ostida" tashabbusi (Spotlight Initiative) bu borada muhim rol o'ynashi mumkin.

Yangi strategiyaga ko'ra, mehnatni munosib rag'batlantirish va xalqaro mehnat standartlariga rioya qilish ustuvor vazifa bo'lib qoladi. Yevropa Ittifoqi Xalqaro mehnat tashkilotining (XMT) asosiy konventsiyalariga muvofiq so'nggi yillarda erishilgan yutuqlarni mustahkamlashga yordam beradi va XMTning mehnatni nazorat qilish, ishchilar salomatligi, xavfsizligi hamda mehnat sharoitlari to'g'risidagi konventsiyalarini ratifikatsiya qilish va amalga oshirishga ko'maklashadi. Yevropa Ittifoqi Birlashgan Millatlar Tashkilotining tadbirkorlik va inson huquqlari bo'yicha tamoyillariga rioya etilishini rag'batlantiradi.

Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha yangi strategiyasida Ittifoqning inson huquqlari sohasida xalqaro tuzilmalar bilan hamkorligi alohida qayd etilgan. Jumladan, Yevropa Ittifoqi YeXHT tamoyillari va majburiyatlariga rioya etilishini rag'batlantiradi, mustaqil institutlar, YeXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari byurosi, Milliy ozchiliklar bo'yicha Oliy komissar va OAV erkinligi bo'yicha vakil bilan hamkorlikni kuchaytiradi hamda Markaziy Osiyo davlatlarini YeXHT bilan aloqalarini mustahkamlash va uning mintaqadagi dala missiyalarini qo'llab-quvvatlash borasida rag'batlantiradi. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hamda XMT bilan sog'lom biznes muhitini va munosib mehnat munosabatlarini qo'llab-quvvatlash uchun hamkorlikni kuchaytiradi.

Yevropa Ittifoqining yangi strategiyasida inson huquqlari sohasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan quyidagi aniq tashabbuslar ilgari surilgan.

Yel, Markaziy Osiyo va Sharqiy sherikchilik davlatlari orasida sud-huquq tizimi, mehnat huquqining asosiy me'yorlari, adolatli boshqaruv, saylov va xotin-qizlar huquqlarini kengaytirish islohotlarini qo'llab-quvvatlash uchun mintaqaviy dasturlardan foydalanish;

Markaziy Osiyoda fuqarolik jamiyati faollari va inson huquqlari himoyachilari uchun inson huquqlari ta'limini kuchaytirish, ularning mintaqaviy darajada, shuningdek Yevropa Ittifoqi va Sharqiy sherikchilik mamlakatlaridagi hamkasblari bilan chegaralararo aloqalarni rivojlantirish;

Mehnat standartlari, tadbirkorlik va inson huquqlari sohasida erkin muloqot o'rnatish.

Xulosa qilib aytganda, Yevropa Ittifoqining ichki siyosatida bo'lgani kabi uning tashqi siyosatida ham inson huquqlari masalasi ustuvor hisoblanadi. Mazkur ustuvorlik Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha yangi strategiyasida ham to'liq o'z aksini topgan.



Дильшод Умаров,
проректор Ташкентского
государственного юридического
университета

Образование в области прав человека: международный опыт и национальная практика

Как известно, Цели в области устойчивого развития (ЦУР)¹ – это 17 глобальных целей и 169 соответствующих задач, разработанных в 2015 году Генеральной Ассамблеей ООН в качестве «плана достижения лучшего и более устойчивого будущего для всех»². Эти цели заменили собой Цели развития тысячелетия.

Уже много лет ООН и ее партнеры в Узбекистане работают над достижением Целей устойчивого развития, направленных на решение основных проблем развития, с которыми сталкиваются люди в Узбекистане и во всем мире. Узбекистан подтвердил свою приверженность достижению глобальной Повестки дня на период до 2030 года и всеобъемлющему подходу к партнерству с участием многих заинтересованных сторон для реализации шестнадцати национальных целей в области устойчивого развития (ЦУР). Текущий национальный среднесрочный план, Национальная стратегия действий на 2017–2021 годы, служит путем к реализации ЦУР. Чтобы обеспечить приоритетность ЦУР во всех министерствах, в октябре 2018 года правительство одобрило и приняло резолюцию о Повестке дня на период до 2030 года, которая усилила приверженность согласованию ЦУР с национальными стратегиями и программами. Правительство утвердило 16 национальных ЦУР, 125 задач и 206 индикаторов для облегчения мониторинга их реализации³.

Напомним, что Цель 4 определяет: «Обеспечение всеохватного и справедливого качественного образования и поощрение возможности обучения на протяжении всей жизни для всех».

В Узбекистане вопросы поощрения, защиты и соблюдения прав человека являются одним из приоритетных направлений государственной политики. В рамках Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017–2021 годах реализованы и реализуются целенаправленные меры в сфере обеспечения личных, политических, экономических, социальных и культурных прав человека.

Узбекистан активно участвует во Всемирной программе Организации Объединенных Наций в сфере обучения правам человека. Реализуются широкомасштабные меры по исполнению Концепции повышения правовой культуры в обществе и Национальной программы действий по реализации положений Декларации по образованию и воспитанию в обла-

¹ <https://www.msn.com/pt-br/noticias/brasil/sp-concentra-cidades-sustent%c3%a1veis-do-pa%c3%ads-tema-foi-ignorado-por-metade-dos-prefeitos-eleitos/ar-BB1eTkux>

² United Nations (2017) Resolution adopted by the General Assembly on 6 July 2017, Work of the Statistical Commission pertaining to the 2030 Agenda for Sustainable.

³ Как ООН поддерживает Цели устойчивого развития в Узбекистане. <https://uzbekistan.un.org/ru/sdgs>.

сти прав человека ООН. Государственные органы, институты гражданского общества, средства массовой информации, образовательные учреждения широко вовлечены в процесс популяризации среди населения общечеловеческих ценностей, принципов уважения и соблюдения прав человека, а также обеспечения доступа граждан к правовой информации.

Кроме того, Четвертым приоритетным направлением Национальной стратегии Республики Узбекистан по правам человека определено повышение правовой грамотности в области прав человека, в том числе эффективной организации распространения информации и образовательной деятельности в данном направлении, где основными задачами являются:

- развитие системы непрерывного образования по правам человека и гендерным вопросам, внедрение современных методов формирования уважения к закону в обществе;
- совершенствование системы подготовки и повышения квалификации профессиональных журналистов в области прав человека, а также правовых и организационных основ журналистского расследования;

- внедрение учебных курсов «Права человека», «Права женщин», «Права ребенка» в высших образовательных учреждениях и учебных центрах переподготовки и повышения квалификации кадров, в том числе судей и сотрудников правоохранительных органов, а также дошкольных и общеобразовательных учреждениях, академических лицеях и колледжах;

- расширение фундаментальных и инновационных исследований, научного потенциала, повышение эффективности научных исследований и разработок научно-исследовательских учреждений в области прав человека, обеспечение их интеграции с международными исследованиями в данной области, широкое внедрение в практику полученных результатов;

- дальнейшее усиление деятельности средств массовой информации по распространению информации в области прав человека, усиление гарантий прав журналистов и блогеров на доступ и распространение информации⁴.

Вопрос обеспечения прав и свобод человека в стране превращается в главный критерий демократических реформ, направленных на создание благополучных и достойных условий жизни для нашего народа.

Международные стандарты по правам человека системно и поэтапно имплементируются в национальное законодательство и правоприменительную практику. В настоящее время нормы более 80 международных документов в сфере прав и свобод человека, ратифицированных Узбекистаном, находят свое отражение в национальном законодательстве.

Осуществляемые широкомасштабные реформы меняют жизнь, мировоззрение и образ жизни людей. Сформированная в обществе благородная цель – «Новый Узбекистан построим вместе», все активнее входит в нашу повседневную деятельность.

Впервые в своей истории Узбекистан избран членом Совета Организации Объединенных Наций по правам человека.

Узбекистан активно участвует во Всемирной программе Организации Объединенных Наций в сфере обучения правам человека. Реализуются широкомасштабные меры по исполнению Концепции повышения правовой культуры в обществе и Национальной программы действий по реализации положений Декларации по образованию и воспитанию в области прав человека ООН.

В рамках проводимых реформ в стране реализован ряд конкретных мер по совершенствованию системы юридического образования, особенно в сфере международного права и прав человека вышло на совершенно новый уровень. Появились абсолютно новые подходы к вопросам образования в области прав человека, что является важным и необходимым

⁴ Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Национальной стратегии Республики Узбекистан по правам человека».

этапом в выстраивании системы образования в области прав человека в стране. И это, в первую очередь, положительно сказывается на деятельности и нашего университета.

Согласно Указу Президента, Ташкентский государственный юридический университет является базовым высшим образовательным и научно-методическим учреждением по подготовке, переподготовке юридических кадров по специальности «юриспруденция». Ни для кого не секрет, что учебная дисциплина «Права человека» уже много лет входит в число обязательных учебных дисциплин нашего университета, а также является объектом научных исследований наших учёных и молодых исследователей.

В Ташкентском государственном юридическом университете на основе передового зарубежного опыта постоянно совершенствуются учебные планы и программы, пересматриваются действующие и создаются новые специальности бакалавриата и магистратуры. В частности, в учебной программе всех направлений магистратуры включены предметы по правам человека.

Хотелось бы подчеркнуть, что на данное время в Ташкентском государственном юридическом университете уже проделана большая работа по созданию учебно-методической и научной базы по правам человека.

Следует отметить, что Ташкентский государственный юридический университет имеет значимую роль в Республике Узбекистан, являясь одним из передовых высших учебных заведений и базовым высшим образовательным и научно-методическим учреждением по подготовке и переподготовке юридических кадров.

Мы уделяем большое внимание практическому аспекту подготовки студентов и их трудоустройству. Уровень востребованности юридического образования в стране очень высок, доказательством чего является конкурс в 20 абитуриентов на одно место на получение степени бакалавра и 25 абитуриентов на одно место на степень магистра в этом учебном году.

В университете в данное время обучаются более 5000 студентов. Порядка 35% наших студентов обучаются на русском языке, кроме того у нас имеются группы с английским языком обучения.

На сегодняшний день быстрыми темпами идет курс на интернационализацию высшего образования, путем расширения и развития международной деятельности, активного сотрудничества с иностранными вузами.

В контексте этого, в прошлом году университет стал полноправным членом 5 международных ассоциаций вузов (Международной ассоциации университетов – IAU, Международной ассоциации юридических школ – IALS, Европейской ассоциации юридических школ – ELFA, Великой хартии европейских университетов – Observatory Magna Charta Universitatum), установил сотрудничество с более 60 университетами и организациями ведущих стран мира (США, Франция, Германия, Польша, Китай, Япония, Турция и страны СНГ).

Так же, мы активно привлекаем международных экспертов к учебному процессу, в частности, на сегодняшний день с учетом карантинных ограничений во всем мире у нас непосредственно преподают 4 зарубежных профессоров и 30 зарубежных профессоров в онлайн форме. Кроме того, обеспечивается высококачественное и успешное участие наших студентов в международных конкурсах и турнирах, как Willem C. Vis Moot Arbitration, Phillip C. Jessup International Law Moot Court Competition и другие.

Также идет работа над обеспечением тесной интеграции образовательного процесса и науки с правоприменительной практикой.

В целях дальнейшего совершенствования механизма защиты прав и свобод человека в Республике Узбекистан, юридического образования, подготовки высококвалифицированных кадров в сфере обеспечения прав человека впервые в системе высшего юридического образования совместно с Национальным центром Республики Узбекистан по правам человека, Университетом мировой экономики и дипломатии, Академией Генеральной прокура-

туры и Ташкентским государственным юридическим университетом создан консорциум по внедрению совместной магистерской специальности «Международное право по правам человека».

В пункте 66 Национальной стратегии Республики Узбекистан по правам человека определено Внедрение совместного магистерского направления (консорциума) по специальности «Международное право по правам человека» в ТГЮУ, УМЭД, Академии Генеральной прокуратуры при поддержке международных партнеров. Безусловно, данный консорциум станет эффективным инструментом реализации единой политики в области защиты прав и свобод человека, предусмотренных Конституцией Республики Узбекистан и международными договорами, ратифицированными нашей страной.

Таким образом, воспитание новых высококвалифицированных специалистов по правам человека послужит выходу Республики Узбекистан на новый уровень в связи с улучшением механизмов защиты прав человека как на национальном, так и на международном уровне, формированию уважительного отношения к правам и свободам человека, дальнейшему укреплению авторитета страны на международной арене, в частности улучшению позиций Республики Узбекистан в экономических и политико-правовых рейтингах и индексах.



Zamirat Borsiyeva,
O'zbekiston Respublikasi
Bosh prokuraturasi Akademiyasi
bo'lim prokurori

Inson huquqlari sohasidagi ta'limni rivojlantirish: salohiyatni birlashtirish va inklyuziv yondashuv

O'zbekistonda so'nggi yillarda inson huquqlari sohasida kadrlar tayyorlash borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, BMTning Inson huquqlari sohasida ta'lim va tarbiya to'g'risidagi deklaratsiyasi (u ma'rifat va ta'limning rivojlanishi uchun katalizator bo'lib xizmat qiladi) asosida qabul qilingan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi amalga oshirilmoqda.

Inson huquqlari sohasida ta'lim berish va kadrlar tayyorlash o'ta ahamiyatli masala bo'lib, O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari madaniyatini shakllantirishga doir davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Prokuratura organlari faoliyatining xalqaro standartlariga muvofiq prokuratura xodimlari uchun ta'lim olish ham burch, ham huquq hisoblanadi.

Binobarin, inson huquqlari sohasida bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan davlat xizmatchilari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari tenglik va ijtimoiy adolatni ta'minlash yo'lida zabardast mehnat qilishga tayyor bo'ladilar.

Yuqoridagilarni inobatga olib, davlat xizmatchilari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining inson huquqlari sohasida bilim va ko'nikmaga ega bo'lishlari uchun keng imkoniyatlarni yaratish maqsadida, ular o'z xizmat vazifalarini bajarishga kirishishidan oldin hamda butun faoliyatlari davomida ta'lim olishlari uchun zarur chora-tadbirlar ko'rilmogda. Shu bilan birga, mazkur sohada ta'lim jarayonlari Inson huquqlari sohasidagi Jahon ta'lim dasturi talablari, muayyan milliy ehtiyojlar va ustuvor yo'nalishlarni uyg'unlashtirish asosida olib borilmoqda.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarini inson huquqlari sohasida o'qitish quyidagi yo'nalishlarda bilim va malakani oshirishga xizmat qiladi:

- ularning funktsional vazifalariga xos bo'lgan tamoyillar va axloqiy talablar asosida faoliyat olib borish;
- ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlarning qonuniy manfaatlarini Konstitutsiya va qonunlar asosida himoya qilish;
- inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlarda belgilangan inson huquqlari va erkinliklari to'g'risidagi qoidalarni amalda qo'llash;
- jinoiy sud tizimida va undan tashqarida qonun ustuvorligi va inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha ishlarni tashkil etish nazariyasi va amaliyotini uyg'unlashtirish;
- qonuniylik, xolislik, adolatlilik va betaraflik tamoyillariga to'liq rioya qilgan holda ularning amalda birgalikda ishlashini ta'minlashga ko'maklashadigan mexanizmlar.

Bosh prokuratura Akademiyasi huquqni muhofaza qilish faoliyatida inson huquqlarini ta'minlash sohasida prokuratura organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasasi hisoblanadi.

Shu bilan birga, Akademiya faoliyati doirasiga trenerlar tayyorlash, ilmiy xodimlarni, prokuratura organlari tizimidagi rahbar kadrlar va boshqa xodimlarni, davlat xizmatchilarini tayyorlash (o'qitish) hamda malakasini oshirish kiradi.

Yuridik kasb vakillariga inson huquqlari sohasida ta'lim berish borasidagi tashabbuslar va loyihalarni ishlab chiqishda Akademiya xalqaro va milliy institutlar bilan yaqindan hamkorlikni faol rivojlantirmoqda.

Shuningdek, Akademiya yuridik kasb vakillarini inson huquqlari sohasidagi ta'lim resurslari bilan tanishtirish, shuningdek ta'limning an'anaviy va masofaviy shakllari orqali ulardan keng qamrovda foydalanish uchun platforma vazifasini bajarmoqda.

Inson huquqlari bo'yicha ta'lim va treninglar zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanilgan holda o'tkazilmoqda. Shuningdek, inson huquqlari va asosiy erkinliklarini ilgari surish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlaridan foydalanilmoqda.

Inson huquqlari sohasidagi ta'lim strategiyasi ta'limni quyidagi yo'nalishlarda rivojlantirishni o'z ichiga oladi:

- ayollar va bolalar uchun odil sudlov;
- gender tengligini ta'minlash;
- aholining zaif qatlamlarini himoya qilish;
- ekstremizm va zo'ravonlikka, qiynoqlarga, odam savdosiga qarshi kurashish;
- axborot xavfsizligini ta'minlash;
- onlayn muhitda jinoyatlarga qarshi kurashish va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 22 iyundagi farmoni bilan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi tasdiqlandi. Unga ko'ra, xalqaro hamkorlar ko'magida TDYuU, JIDU, Bosh prokuratura Akademiyasi hamkorlikda "Inson huquqlariga oid xalqaro huquq" mutaxassisligi bo'yicha qo'shma magistratura yo'nalishini (konsortsium) joriy qilish belgilangan.

Shu munosabat bilan, Bosh prokuratura Akademiyasi tomonidan Milliy strategiyaning mazkur bandi ijrosini ta'minlash yuzasidan izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

2021 yil oktyabr oyidan boshlab O'zbekistonda ilk bor Bosh prokuratura Akademiyasida "Inson huquqlariga oid xalqaro huquq" mutaxassisligi bo'yicha yangi magistratura yo'nalishi ochildi va o'z faoliyatini boshladi.

Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining O'zbekistondagi loyihalari koordinatori ko'magida Raul Vallenberg nomidagi Inson huquqlari va gumanitar huquq instituti (Shvetsiya) bilan hamkorlikda "Inson huquqlariga oid xalqaro huquq" mutaxassisligi bo'yicha o'quv dasturi ishlab chiqildi.

Raul Vallenberg nomidagi Inson huquqlari va gumanitar huquq instituti mutaxassislari bilan hamkorlikda "Odil sudlovga bo'lgan huquq" kursi ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Mazkur kurs jinoyat protsessining sudgacha bo'lgan bosqichlarini hamda sud jarayonini o'z ichiga oladi.

O'quv dasturi yuqorida qayd etilgan Institut ekspertlarining fikr-mulohazalari inobatga olingan holda ishlab chiqildi va Xastings yuridik maktabi (AQSh), shuningdek Sirakuza universiteti (AQSh) ekspertlari tomonidan ijobiy baholandi.

Shu bilan birga, "Qiynoqlarga qarshi kurash" o'quv moduli Bristol universiteti (Buyuk Britaniya) mutaxassislari bilan, "Jabrlanuvchilar huquqlarini himoya qilish" o'quv moduli Lund universiteti (Shvetsiya) mutaxassislari bilan hamkorlikda ishlab chiqildi va amaliyotga joriy qilindi.

2022 yil yanvar oyidan boshlab aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga bepul yuridik yordam ko'rsatish bo'yicha "Proacademy" elektron ta'lim portali bilan integratsiyalashgan onlayn-klinikani ishga tushirish rejalashtirilgan.

Onlayn-klinikani ishga tushirish va faoliyatini boshlash borasida Akademiyaning klinik ta'lim strategiyasini ishlab chiqishga ko'maklashgan Xastings yuridik maktabi (AQSh) ekspertlari bilan

yaqindan hamkorlikni davom ettirish nazarda tutilgan. Akademiyada o'quv jarayoniga BMT IHOKB, XQXQ, YeXHT, Yevropa Kengashi mutaxassislari tizimli ravishda jalb etilgan.

Yevropa Komissiyasi va Yevropa Kengashining Markaziy Osiyodagi "Yuridik kasb vakillari uchun inson huquqlari bo'yicha ta'lim" (HELP) loyihasi koordinatori bilan uchrashuv natijasida HELP elektron platformasining yangi o'quv modullarini yaratish va ularni o'zbek tiliga tarjima qilish, shuningdek inson huquqlari xalqaro standartlari sohasida o'qitish uchun HELP metodikasini o'rgatuvchi trenerlarni tayyorlash bo'yicha kelishib olindi.

2021 yilda Akademiyaning 5 nafar xodimi HELP dasturining yuridik kasb vakillari uchun trenerlar tayyorlash kursidan muvaffaqiyatli o'tdilar.

1) Yoshlarni inson huquqlari va asosiy erkinliklariga hurmat ruhida tarbiyalash bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida yoshlar huquqlarining ta'minlanishi" mavzusida kursantlar uchun ilmiy-amaliy konferentsiyasi bilan birga "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining yoshlar huquqlarining ta'minlanish mohiyati va ichki ishlar organlari faoliyati uchun ahamiyati" mavzusidagi seminar-treninglar o'tkazish;

2) Davlat xizmatchilari uchun inson huquqlari, gender tengligi sohasida ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar bandlari qatoriga "Inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlar, ularning tasnifi, ichki ishlar organlari faoliyatidagi tutgan o'rnini va ahamiyati" hamda "Ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilishga oid ichki ishlar organlarining vazifalari va majburiyatlari" alohida bandlari nazarda tutilgan;

3) Inson huquqlari sohasida pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar qatoriga "Inson huquqlarini o'qitishda interfaol metodlarni qo'llash" o'quv-uslubiy qo'llanmasini tayyorlash va chop etish amalga oshirilmoqda.

Shunday qilib, inson huquqlari sohasida pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha IIV Akademiyasida ilmiy-tadqiqot ishlarini rejalashtirish va muvofiqlashtirish, unda bajarilayotgan fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarini muvofiqlashtirish, shuningdek oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog xodimlarni tayyorlash yo'lga qo'yilgan.

Inson huquqlari sohasida pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash borasida IIV Akademiyasining bosh va asosiy maqsadi uyg'un ravishda, respublika va uning mintaqalarida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda ichki ishlar organlari uchun oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash asosiy vazifa sifatida belgilandi.

Shuningdek, IIV Akademiyasi faoliyati davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Qarorlari, Farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining Farmoyish va Qarorlari, Ilmiy Kengash qarorlari va Akademiya boshlig'ining buyruqlarida belgilangan maqsad va vazifalarning amaldagi ijrosini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslangan tizimi va strategiyasiga asoslanadi.

Xulosa sifatida ta'kidlash lozimki, inson huquqlari sohasida pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun dolzarb vazifa sifatida bo'lganligini tan olish lozim.



Muzaffarjon Mamasiddiqov,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi
Akademiyasi boshlig'i o'rinbosari

Ma'lumki, inson huquqlari va erkinliklari sohasida umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalari, shuningdek milliy qonunchilik talablariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlash, inson huquqlari va erkinliklarining buzilishiga olib keluvchi sabab va shart-sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan choralar ko'rib borish prokuratura organlarining eng muhim vazifasidir.

Shu jihatdan ham inson huquqlari sohasidagi amaliy va nazariy bilimlarni oshirib borish bugungi kunda prokuratura organlari xodimlari oldida turgan ustuvor vazifa hisoblanadi.

Shu bilan birga, inson huquqlari sohasidagi ta'lim yuridik ta'limning tarkibiy qismi hisoblanib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida liberallashtirish va demokratlashtirish jarayoni ketayotgan, huquqiy davlat qurilayotgan hamda adolatli fuqarolik jamiyati shakllantirilayotgan hozirgi kunda, ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etadi.

2018 yil 8 may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Prokuratura organlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinib, uning asosida Bosh prokuratura akademiyasi tashkil etildi. Qisqa vaqt ichida Akademiyaning zamonaviy talablarga javob bera oladigan, prokuratura organlari oldiga qo'yilgan vazifalarni samarali bajara oladigan yangi dunyo qarashdagi kadrlarni tayyorlashga qaratilgan zaruriy o'quv-ilmiy salohiyati shakllantirildi.

Akademiya tashkil topganidan so'ng, akademik ta'lim va amaliyot o'rtasidagi mavjud bo'shliqlarni to'ldirish, prokuratura organlarini inson huquqlarini ta'minlash, prokuror-tergov faoliyatining turli yo'nalishlari bo'yicha zarur ko'nikma va kompetentsiyalarga ega bo'lgan kadrlar bilan ta'minlash imkonini beradigan prokuratura organlarida lavozimlarni egallashga nomzodlarni kasbiy qayta tayyorlashning mutlaqo yangi modeli yaratildi. O'qitishning eski shakl va usullari tubdan qayta ko'rib chiqilib, fan, ta'lim va amaliyotning chuqur o'zaro aloqasi va almashinuviga asoslangan ilg'or innovatsion ta'lim texnologiyalari joriy etildi.

Shunisi e'tiborga molikki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 22 iyundagi Farmoni bilan tasdiqlangan "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi"da xalqaro hamkorlar ko'magida TDYuU, JIDU, Bosh prokuratura Akademiyasida "Inson huquqlariga oid xalqaro huquq" mutaxassisligi bo'yicha qo'shma magistratura yo'nalishini joriy qilish vazifasi belgilab berilgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu Farmonida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda Akademiya faoliyatida bugungi kunga qadar milliy ta'lim tizimida mavjud bo'lmagan inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan "Inson huquqlariga oid xalqaro huquq" va "Korruptsiyaga qarshi kurashish" magistratura yo'nalishlarining ochilishi inson huquqlarini himoya qilishga doir mutaxassislar tayyorlash bo'yicha mavjud bo'shliqni to'ldirishga doir tashlangan dadil qadam bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Har yili inson huquqlari yo'nalishi bo'yicha magistraturasida 10 nafar talabalar tahsil olib kelmoqda. Joriy o'quv yilida 15 nafar talabalarni magistraturaga o'qishga qabul qilish rejalashtirilmoqda.

Magistratura o'quv jarayoniga 40 ga yaqin xalqaro va xorijiy ekspertlar jalb qilingan bo'lib, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida ular bilan uzoq muddatli hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Hozirda Yevropa Kengashi va Yevropa Ittifoqining qo'shma loyihasi doirasida magistraturada yangi tashkil etilgan inson huquqlari mutaxassisligining barcha o'quv dasturlari ishlab chiqilib, keyingi o'quv yilidan yo'lga qo'yish rejalashtirilmoqda.

Xususan, Shvetsiyaning R.Vallenberg nomidagi Xalqaro gumanitar huquq va inson huquqlari instituti mutaxassislari ishtirokida magistratura mutaxassisliklari bo'yicha "Odil sudlov huquqi", "Shaxsiy daxlsizlik va erkinlik huquqi", Lund universiteti ekspertlari ishtirokida "Jabrланuvchilar huquqlari" kabi o'ndan ortiq o'quv-uslubiy majmualar ishlab chiqildi.

Shuningdek, korruptsiyaga qarshi kurash yo'nalishida xalqaro maydonda tan olingan ekspert M.Kroytner, "Mintaqaviy muloqot" XNTning eksperti (Sloveniyaning sobiq korruptsiyaga qarshi kurashish komissiyasi rahbari) G.Klimenchich, YuNISEF eksperti I.van Velzenis, BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissariyat boshqarmasi eksperti A.Ibraeva, R.Vallenberg nomidagi Inson huquqlari instituti direktori Z.Zalanova va boshqa yetuk mutaxassislar o'quv dasturlarini ishlab chiqish va ta'limni amalga oshirishda ishtirok etishmoqda.

Shuni mamnuniyat bilan qayd etish lozimki, bugungi kunda Akademiyaning xorijiy hamkorlar bilan inson huquqlarining barcha sohalari bo'yicha o'zaro tajriba almashish borasidagi hamkorligi keng yo'lga qo'yilgan.

Jumladan, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining O'zbekistondagi koordinatori va Buyuk Britaniyaning Bristol universitetining eksperti bilan hamkorlikda "Qiynoqqa qarshi kurashish" o'quv moduli ishlab chiqildi.

Inson huquqlari bo'yicha o'tkazilayotgan barcha o'quv mashg'ulotlari zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'tkazilmoqda. O'quv mashg'ulotlari jarayonida tinglovchilarga inson huquqlariga doir xalqaro va milliy standartlar normalarini bevosita amaliyotda qo'llash bo'yicha bilim va ko'nikmalar berilmoqda.

Misol uchun, Akademiyada hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tergov harakatini o'tkazish bo'yicha virtual imitatsion kompleks dasturiy ta'minoti yo'lga qo'yilgan bo'lib, ushbu trenajer-simulyator jinoyat sodir etilgan turli joylarni shakllantirish imkonini beradi.

Yoki, Akademiyada YeXHT ko'magida Darknet laboratoriyasi tashkil etilib, kibermakondagi jinoyatlarga qarshi kurashish usullari bilan amalda tanishish, bu boradagi kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyati yaratildi.

Shuningdek, bugungi kunda Akademiyada Kiberpoligon tashkil etish hamda tegishli vositalar va dasturiy ta'minotlar bilan ta'minlash bo'yicha NCA (Buyuk Britaniya) bilan loyiha amalga oshirilmoqda.

Akademik mobillik dasturi doirasida nufuzli xorijiy ta'lim muassasalarida (AQSh, Yaponiya, Shvetsiya) 4 nafar professor-o'qituvchining stajirovkasi hamda 4 nafar tinglovchining tahsil olishi tashkillashtirildi. Bundan tashqari, Shvetsiya, Italiya va Latviyadan 1 nafardan tadqiqotchilar, Qozog'iston Respublikasidan 10 nafar doktorantning Akademiyada stajirovkasi tashkillashtirildi.

Akademiyaga faoliyatiga ko'plab xalqaro va xorijiy ekspertlar jalb qilingan bo'lib, aksariyati uzoq muddatli hamkorlikni amalga oshirib kelmoqda. Birgina, 2021 yil davomida 20 dan ortiq xalqaro va xorijiy ekspertlar uzoq va o'rta muddatlarga jalb qilindi.

Xususan, R.Vallenberg nomidagi Inson huquqlari instituti direktori Z.Zalanova, korruptsiyaga qarshi kurash yo'nalishida mashhur xalqaro ekspert M.Kroytner, "Mintaqaviy muloqot" XNTning huquq bo'yicha eksperti G.Klimenchich, ingliz tili bo'yicha mutaxassis D.Zaxarov va boshqa bir qator yetuk mutaxassislar ta'lim jarayonlarida ishtirok etmoqdalar.

Bugungi kunda ta'lim sohasidagi xalqaro ekspert (Germaniya), professor B.Baumannni AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) loyihalari doirasida Akademiyaga faoliyatiga jalb qilish ishlari olib borilmoqda.

Ta'kidlash lozimki, Bosh prokuratura Akademiyasida inson huquqlarini ta'minlash, sud va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohalarida idoralararo ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish va ularni muvofiqlashtirish maqsadida mamlakatimiz yurisprudentsiya tarixida birinchi marta TDYuU, Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi, IIV Akademiyasi, Milliy gvardiya XTI, DXX instituti, DBQ Bojxona instituti, Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi va DSQ huzuridagi Malaka oshirish markazi kabi oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarini o'zida birlashtirgan Ilmiy-tadqiqot konsortsiumi tashkil etildi.

Mamnuniyat bilan aytish mumkinki, ushbu konsortsium doirasida turli ilmiy-amaliy konferentsiyalar tashkil etilmoqda, axborot-tahliliy ma'lumotnomalar, qo'shma tadqiqotlar hamda o'quv-uslubiy qo'llanmalar tayyorlanmoqda. Akademiyaning professor-o'qituvchilarining sa'y-harakatlari bilan 30 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatning loyihasi, 150 dan ortiq o'quv, uslubiy va amaliy qo'llanmalar, monografiyalar hamda boshqa maxsus adabiyotlar tayyorlandi va chop etildi.

Ma'ruzam yakunida e'tiboringizni yana bir muhim jihatga qaratmoqchiman.

Bugungi kunda Akademiya tomonidan inson huquqlarining turli sohalar, ayniqsa, xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash hamda ularni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasida prokuratura organlari xodimlarining bilimlarini oshirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Qonunchiligimiz teng huquqlilik bilan birga ayollarga ma'lum bir ustuvorlik hollari berilishi, alohida qoidalari mavjudligi bilan ajralib turadi. Ularning hammasini bilish, eng muhimi, amaliyotda to'g'ri qo'llay olish, yaratilgan yangi himoya mexanizmlarini ishlata olishda salohiyatimizni yuksaltirishimiz zarur.

Shu bois, Bosh prokuratura Akademiyasi va yangi boshqarma hamkorligida maxsus o'quv kursi yaratilib, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tizim xodimlari muntazam o'qitib borilmoqda.

Xususan, kurs doirasida tinglovchilarga milliy olimlar, ekspert va soha mutaxassislari tomonidan gender va gender tengligi tushunchasi va uning mazmun-mohiyati; ayol psixologiyasining o'ziga xos xususiyatlari va ularning muloqot jarayonida hisobga olish zaruriyati; oilada zo'ravonlikka uchragan, shuningdek og'ir ijtimoiy sharoitdagi, shu jumladan, suitsidga moyil shaxslar bilan ishlashning ijtimoiy-psixologik jihatlar; oilaviy zo'ravonlik qurboni bo'lgan xotin-qizlarning odil sudlovga bo'lgan huquqini ta'minlashda prokuratura organlarining o'rni; sudlarda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishning ayrim masalalari kabi qator mavzularda mashg'ulotlar olib borilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda prokuratura organlari tomonidan inson huquqlarini himoya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratish bilan birga, bu sohada faoliyat ko'rsatayotgan prokuratura xodimlarining inson huquq va erkinliklarini kafolatlovchi milliy va xalqaro hujjatlarga doir bilim va ko'nikmalarini ilg'or xorijiy tajriba asosida muntazam va tizimli oshirish ishiga ustuvor vazifa deb qaralmoqda. Bu jarayonda, ayniqsa, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning samarali uslublarini qo'llashga alohida e'tibor berilmoqda. Bu borada Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman), shuningdek vazirlik va idoralarning inson huquqlari bo'yicha tuzilmalari hamda nodavlat notijorat tashkilotlari bilan yaqindan hamkorlik qilinmoqda.

Shu fursatdan foydalanib, mazkur faoliyatimizda bizga yaqindan ko'maklashayotgan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markaziga, shuningdek boshqa milliy va xalqaro hamkorlarimizga yuksak minnatdorchiligimni bildiraman.

5-sessiya:
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING
INSON HUQUQLARI BO'YICHA TA'LIM
SOHASIDA FAOLLIGINI OSHIRISH

Session 5:
INCREASING THE ACTIVITY OF CIVIL SOCIETY
INSTITUTIONS IN THE FIELD OF HUMAN
RIGHTS EDUCATION

Сессия 5:
ПОВЫШЕНИЕ АКТИВНОСТИ ИНСТИТУТОВ
ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА
В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ
В ОБЛАСТИ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА



Ойбек Исаков,
Председатель Ассоциации
инвалидов Узбекистана

Образование и просвещение общества в сфере прав человека является первым шагом в понимании и реализации человеком своих прав. Недаром в Конвенции по правам инвалидов, которую Узбекистан ратифицировал в этом году, одна из первых статей посвящена просветительно-воспитательной работе.

В частности, в статье 8 Конвенции подчёркивается:

1. Государства-участники обязуются принимать безотлагательные, эффективные и надлежащие меры к тому, чтобы:

(a) повышать просвещенность всего общества, в том числе на уровне семьи, в вопросах инвалидности и укреплять уважение прав и достоинства инвалидов;

(b) вести борьбу со стереотипами, предрассудками и вредными обычаями в отношении инвалидов, в том числе на почве половой принадлежности и возраста, во всех сферах жизни;

(c) пропагандировать потенциал и вклад инвалидов.

2. Принимаемые с этой целью меры включают:

(a) развертывание и ведение эффективных общественно-просветительных кампаний, призванных:

(i) воспитывать восприимчивость к правам инвалидов;

(ii) поощрять позитивные представления об инвалидах и более глубокое понимание их обществом;

(iii) содействовать признанию навыков, достоинств и способностей инвалидов, а также их вклада на рабочем месте и на рынке труда;

(b) воспитание на всех уровнях системы образования, в том числе у всех детей начиная с раннего возраста, уважительного отношения к правам инвалидов;

(c) побуждение всех органов массовой информации к такому изображению инвалидов, которое согласуется с целью настоящей Конвенции;

(d) продвижение воспитательно-ознакомительных программ, посвященных инвалидам и их правам.

В целях образования и просвещения общества в сфере прав лиц с инвалидностью, Ассоциация инвалидов проводит в регионах Узбекистана семинары тренинги для государственных служащих и представителей ННО по таким темам как: цели и задачи ЦУР, цели и значение Конвенции по правам инвалидов, модели инвалидности (медицинская и социально-правовая), что такое дискриминация по признаку инвалидности, доступ к правосудию лиц с инвалидностью, обеспечение избирательных прав лиц с инвалидностью, суть и значение общественного контроля и т.д. Ассоциация инвалидов уже два года подряд организует для студентов Национального университета и Университета мировой экономики и дипломатии мастер-классы по вопросам прав лиц с инвалидностью. Также Ассоциация ин-

валидов проводит ежегодный конкурс сочинений среди студентов вузов на тему: «На пути к инклюзивному обществу».

В настоящее время Национальным центром Республики Узбекистан по правам человека разрабатывается дорожная карта в сфере образования по правам человека. Ассоциация инвалидов предлагает включить в данную дорожную карту следующие предложения:

1. Подготовка учебного пособия для студентов бакалавриата «Социальная работа с лицами с инвалидностью».

2. Оказание консультативной (экспертной) помощи высшим учебным заведениям в процессе разработки учебных и рабочих программ в сфере прав лиц с инвалидностью по предметам:

а) социальная работа с лицами, имеющими инвалидность;

б) основы инклюзивного образования и т.д.

3. Разработка проекта закона об инклюзивном образовании.

4. Организация в высших образовательных учреждениях правовой и гуманитарной направленности курсов и учебных предметов по правам лиц с инвалидностью (см. Закон о правах лиц с инвалидностью, ст. 30).

5. Организация в Институте архитектуры и строительства учебного курса по созданию без барьерной среды для лиц с инвалидностью.

6. В целях повышения потенциала и знаний представителей гражданского общества о правах человека, осуществлять выделение государственных социальных заказов ННО для проведения учебных семинаров-тренингов о правах человека и международных договорах в сфере прав человека, которые ратифицированы Республикой Узбекистан.

7. Создание при Ассоциации инвалидов учебного центра по обучению государственных служащих и представителей гражданского общества в сфере защиты прав лиц с инвалидностью и основам Конвенции по правам инвалидов.

8. Обучение представителей ННО в сфере проведения общественного контроля и составление альтернативных отчетов по реализации международных договоров, ратифицированных Республикой Узбекистан.

9. Обучение адвокатов имплементации в свою деятельность международных конвенций и договоров (непрерывное обучение по принципу тренер-тренеру).

10. Повышение правовой грамотности женщин и уязвимых групп населения.

11. Издание социальных роликов, буклетов и пособий по правам человека.

12. Организация обмена международным опытом летних школ.



Sevara Ishmuratova,
Inson huquqlari bo'yicha
O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi
Umumiy bo'lim boshlig'i

Fuqarolik jamiyati va ta'lim sohasida jurnalistikaning o'rni

O'zbekiston davlati mustaqillikka erishganidan keyin bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan mustaqil fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etish, inson manfaatlarini qondirish, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash, jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish asnosida barcha fuqarolarning qonun oldida tengligiga hamda adolat printsiplarining amal qilishiga erishish kabi eziguliklarga asoslanadigan muhitni yaratish uchun fuqarolik jamiyatini qurishni asosiy strategik maqsad sifatida e'lon qildi.

Fuqarolik jamiyati – ochiq ijtimoiy tuzilma. Unda so'z erkinligi, shu jumladan, tanqid qilish erkinligi, oshkoralik, har xil axborotlar olish erkinligi, har bir hududga erkin kirish va chiqish huquqi, boshqa mamlakatlar bilan keng miqyosda, doimiy asosda axborot, ta'lim texnologiyalari almashinuvi, chet davlatlar va jamoat tashkilotlari bilan madaniy va ilmiy hamkorlik, xalqaro huquq printsiplari va normalariga muvofiq xalqaro xorijiy birlashmalar faoliyatiga ko'maklashish ta'minlanadi. U umumiy insonparvarlik tamoyillariga sodiq bo'lib, dunyo miqyosidagi shunday tuzilmalar bilan o'zaro aloqa qilish uchun ochiqdir.

Ta'kidlash lozim, insoniyat "globallashuv" deb atalgan yangicha hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan va bu aloqalar jadal sur'atlarda kengayib, chuqurlashib borayotgan yangi taraqqiyot bosqichiga chiqdi. Buning natijasida "globallashuv" so'zi iqtisodiygina emas, balki ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va boshqa qariyb barcha sohalaridagi umuminsoniy jarayonlarni qamrab oluvchi tushunchaga aylanib ulgurdi.

Axborot globallashuvi dunyo mamlakatlaridagi shart-sharoit va ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotimizdagi umumiylikni, o'xshashliklarni keltirib chiqardi. Buning oqibati o'laroq ommaviy axborot vositalarining erkinligi ekanligini inkor etish mumkin bo'lmay qoldi, biror taraqqiy etgan mamlakat matbuotini erkinlashtirish sohasida erishilgan ilg'or tajribalarni uzoq-yaqin davlatlarga tarqatish imkoniyatlari ko'paydi, jurnalistika maktablarini qamrab olishga qodir ko'plab muhim xalqaro hujjatlar yaratildi va hayotga tatbiq etildi, dunyo mamlakatlaridagi matbuot erkinligi ahvolini xalqaro miqyoslarda kuzatish, ular haqida fikr-mulohaza yuritish, bahosini berish va shu asosda muayyan mamlakatdagi ahvol haqida dunyo jamoatchiligi fikrini shakllantirish odati birmuncha ommalashdi.

Tabiiyki, bularning barchasi dunyoni yaxlit axborot maydoniga aylantirib ulgurmoqda. Jurnaslitka fuqarolik jamiyatida o'z o'rniga ega bo'lmoqda.

E'tirof etish kerakki, endilikda davlatlarning qudrati, salohiyati nechog'li ko'p axborotga egaligi bilan o'lchanmoqda. Eng muhimi, axborotga egalik qilish tevaragida raqobat har qachongidan kuchayib bormoqda. Mazkur jarayonning o'zi jurnalistikaning qaror topishini, rivojlanishini, pirovard natijada butunjahon jurnalistikasi xususiyatlarining umumiylashuvini jadallashtirmoqda.

Inson va fuqaroning tabiiy huquqlarini so'zsiz e'tirof etish va himoya qilish hamda so'z va matbuot erkinligi, ommaviy axborot vositalarining mustaqilligi fuqarolik jamiyatining eng muhim

omillari hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati qator tamoyillarga tayangan holda faoliyat ko'rsatadi. Xususan, siyosiy sohada hamma insonlarning huquq va erkinliklarining tengligi, fuqarolarni erkin, madaniyatli, ma'naviy va ijtimoiy faol, jamiyat a'zolarini qonun oldida mas'uliyatli qilib shakllantiradigan fan, madaniyat, ta'lim va tarbiya uchun zaruriy moddiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratish, faqat qonun bilan cheklangan davlat tsenzurasidan tashqari erkin faoliyat yuritadigan OAV yaratish va faoliyat yuritish erkinliklari.

Darhaqiqat, demokratiya va inson huquqlari, urush va tinchlik, giyohvandlik, terrorizm, ekologik muammolar, shuningdek Yevropa davlatlarining dunyo hamjamiyatiga integratsiyasi masalalarini jahondagi deyarli barcha yirik OAV sahifalarida ko'rish, kuzatish mumkin. Shunday ekan, fuqarolik jamiyatida aynan OAVning sahifalari yaqqol o'z aksini ko'rsatib kelmoqda.

Axborot globallashuvi jarayonida hayotimizni ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur etishimiz juda qiyin. Ayniqsa, har bir sohada bo'layotgan o'zgarishlar, imkoniyatlar bugun ushbu jarayonda axborot tezlashuvini, o'zaro fikr almashishni talab etadi. Bunda esa albatta jurnalistikaning o'rni va roli beqiyos. Sababi, har bir inson bugun o'ziga kerakli bo'lgan ma'lumotni ommaviy axborot vositalari orqali topish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Televidenie, gazeta, radio, ijtimoiy tarmoqlar deysizmi, barchasida ma'lumotlar tezkorlik bilan nashr etilib, aholiga vaqtida yetkazilmoqda.

Axborot va axborotlashtirish o'zi nima? Uning jamiyatdagi o'rni va roli belgilanganmi? Axborot texnologiyalari deyilganda-chi, nimani tushunish mumkin? Bu kabi savollarga juda aniq va konkret javob berish mumkin. Xususan, axborotlashtirish – bu axborot resurslari, texnologiyalari va tizimlaridan foydalangan holda axborotga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun sharoit yaratishning tashkiliy, texnik, texnologik, ijtimoiy-iqtisodiy jarayondir.

Albatta, ta'kidlaydigan bo'lsak, bugungi kunda "axborot jamiyati" atamasi tobora ko'proq qo'llanilmoqda, ammo uni nazariy asoslash va keyingi rivojlanish istiqbollarini aniqlashga yetarlicha e'tibor berilmayapti. Globallashuv sharoitida axborot bumidan tashqarida bo'lishning iloji yo'q. Shu bois jamiyat hayotining barcha sohalarini axborotlashtirish uchun asos bilan ta'minlash zarur ko'rinadi. Axborot jamiyati XXI asr jamiyati bo'lib, unda muammolar taraqqiyot sohasida qolmaydi, balki umuminsoniy sa'y-harakatlar bilan birgalikda hal etiladi.

Keling, atamaning o'ziga qaytaylik. Axborot jamiyati sotsiologik va futurologik tushuncha bo'lib, ilmiy-texnikaviy va boshqa axborotlarni ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanishni ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omili deb hisoblaydi. Axborot jamiyati tushunchasi postindustrial jamiyat nazariyasining o'ziga xos turi bo'lib, unga D.Bell, Z.Bjezinski, O.Toffler asos solgan.

Axborot jamiyati nazariyasi tarafdorlari ijtimoiy taraqqiyotni "bosqichlar o'zgarishi" deb hisoblagan holda uning shakllanishini qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmat ko'rsatish iqtisodiyotidan keyingi "to'rtinchi" – iqtisodiyotning axborot sektori hukmronligi bilan bog'laydilar.

Shu bilan birga, sanoat jamiyatining asosi sifatida kapital va mehnat axborot jamiyatida o'z o'rnini axborot va bilimga bo'shatib berayotganligi ta'kidlanadi. Axborot texnologiyalarining inqilobiy ta'siri axborot jamiyatida sinflar o'rnini ijtimoiy jihatdan farqlanmagan "axborot hamjamiyatlari" egallashiga olib keladi (E.Masuda). O. Toffler an'anaviy yirik korporatsiyalarni "kichik" iqtisodiy shakllar – uyda individual faoliyat, "elektron kottej" bilan taqqoslaydi. Ular inson hayotining "info", "texno" va boshqa sohalar bilan axborot jamiyatining umumiy tarkibiga kiradi. Televizion, kompyuter xizmati va energetika – "telekompyuter energiyasi" (J.Pelton) sintezi asosida "global elektron tsivilizatsiya" loyihasi ilgari suriladi.

Ijtimoiy munosabatlarning globallashuv jarayonlari har xil turdagi sub'ektlarning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy faoliyatining butun tizimini sezilarli darajada murakkablashishiga hamda ularni boshqarish va axborot bilan ta'minlashning zarur mexanizmlarini shakllantirishga olib keladi. Shu bilan birga, tizimli tahlil va bir qator operatsiyalarni tadqiq qilish bugungi kunda yaxshi ishlaydigan axborot jarayonlarisiz mumkin emas. Yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, insoniyat hayotining barcha jabhalariga keng joriy etilishi ularni jiddiy qayta qurishga, ijtimoiy faoliyatning yangi shakllarining paydo bo'lishiga olib keldi.

Fuqarolik jamiyati tushunchasi – konstitutsiyaviy huquq nazariyasida huquq va demokratiyaga asoslangan ijtimoiy hayotning zarur oqilona usuli; insonga uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti shakllarini erkin tanlash kafolatlanadigan, qonun ustuvorligi hamda inson huquqlari va erkinliklari qaror topadigan, ko'p partiyaviylik, siyosiy g'oya, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi ta'minlanadigan hamda o'zini o'zi boshqarish organlarining mavqei baland bo'lgan ijtimoiy tuzum. Fuqarolik jamiyatini qurish kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari bosqichma-bosqich o'tish orqali ro'y beradi. Mamlakatimiz istiqbolga erishganidan keyin O'zbekiston adolatli fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidan bormoqda. Bu yo'l ajdodlarimiz hayotida tarixiy tajribaga ega bo'lish bilan birga xalqaro miqyosda ham keng qo'llanilishi bilan ahamiyatlidir.

Jamiyatda inson huquqlari madaniyatini shakllantirish fuqarolarning huquqlarini ta'minlash va himoya qilish hamda qonun ustuvorligini mustahkamlashning muhim shartlaridan biridir. Inson huquqlari madaniyatini shakllantirish davlat faoliyatining muayyan shakllarida, jumladan, barcha turdagi va darajadagi ta'lim tizimi, malaka oshirish tizimlari inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatida ifodalanadi.

Prezidentimiz farmoni bilan tasdiqlangan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi-ning Milliy strategiyasida inson huquqlari sohasida ta'lim va tarbiyaga alohida urg'u berilgan. Bu borada maktabgacha ta'lim va umumta'lim muassasalarida, akademik litsey va kollejlarda, shuningdek oliygohlarda "Inson huquqlari", "Ayollar huquqlari", "Bola huquqlari" o'quv kurslarini joriy etish muhim vazifa sifatida belgilangan.

Hayot haqiqati shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi shiddatli davr insonlarda siyosiy ong va huquqiy savodxonlikni, ma'naviy yuksalishni, umuman, har tomonlama shakllanib borishni talab etmoqda. Keng miqyosdagi yangilanishlar jarayonida ularning daxldorligini oshirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ayni mana shunday vaziyatda jurnalistika sabab inson omili rivojlanadi, o'ziga kerakli bo'lgan ma'lumotni o'z bilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Asosiysi, kerakli axborot bilan ta'minlanishiga erishiladi.

O'rinli bir savol tug'iladi – ta'limda ham jurnalistikaning o'rni bormi? Albatta, ayni haqiqat, ta'limning rivoji hamda uning insonlar ongiga singishida ta'limning o'rni beqiyos. Ayniqsa, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilingandan so'ng, xalqaro hamjamiyat inson huquqlari va asosiy erkinliklariga ustuvor ravishda e'tibor bera boshladi. Mazkur huquqlardan biri – ta'lim olish huquqi – barcha inson huquqlaridan foydalanishga yo'l ochadigan boshlang'ich nuqtadir. Ta'lim olish huquqi – inson huquqlari bo'yicha ta'limni o'z ichiga olib, ushbu huquqlarni o'rganish, shuningdek jamiyatimizda inson huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish usullari, vositalarini ham qamrab olgan. Inson huquqlari bo'yicha ta'lim va tarbiya – bu inson hayoti mobaynida davom etadigan va turli yoshdagilarga tegishli bo'lgan jarayondir.

2004 yilning 10 dekabrda BMT Bosh Assambleyasining barcha bo'linmalarida inson huquqlari sohasidagi ta'limni amalga oshirishga ko'maklashish maqsadida Inson huquqlari sohasidagi Jahon ta'lim dasturini e'lon qilindi. Bundan maqsad barcha davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va biznes sektorida inson huquqlari sohasidagi ta'lim dasturlarini amalga oshirishga ko'maklashishdir.

Jahon ta'lim dasturi doimiy amalga oshiriladigan uzluksiz 4 bosqichdan iborat tashabbus bo'lib, barcha yo'nalishlarda inson huquqlari sohasidagi ta'limni amalga oshirishga ko'maklashish maqsadida davlatlar inson huquqlari bo'yicha ta'limni boshlang'ich va o'rta maktab, oliy ta'lim tizimida, o'qituvchi va targ'ibotchilar, davlat xizmati, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari va barcha darajadagi harbiylar, shuningdek ommaviy axborot vositalari vakillari o'rtasida singdirib borishlari lozimligi belgilandi.

2020–2024 yillarda Jahon ta'lim dasturining to'rtinchi bosqichi amalga oshirilmoqda, ushbu bosqich yoshlarni tenglik, inson huquqlariga amal qilish va kamsitmaslik ruhida tarbiyalash hamda inklyuziv, tinch va osoyishta jamiyatni yaratishga imkon beruvchi ta'lim berishga qaratilgandir.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari sohasida ta'lim va tarbiya to'g'risidagi deklaratsiyasi qoidalarini amalga oshirish hamda inson huquqlari madaniyatini shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi tomonidan 2019 yil 15 iyulda BMTning Inson huquqlari sohasida ta'lim va tarbiya to'g'risidagi deklaratsiyasi qoidalarini amalga oshirish bo'yicha milliy harakatlar dasturi va uning ijrosi yuzasidan "Yo'l xaritasi" qabul qilingan.

Fuqarolik jamiyatini jalb etgan holda inson qadr-qimmatini hurmat qilishni tarbiyalash maqsadida ishlab chiqilgan inson huquqlari sohasidagi o'quv-ma'rifiy dasturlarni tizimli amalga oshirish bo'yicha ishlarni mustahkamlash hamda har qanday ijtimoiy guruhga va umuman jamiyatga mansub har bir shaxsga nisbatan inson huquqlari amalga oshirilishini ta'minlash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Shu ma'noda, O'zbekiston Prezidentining 2021 yil 7 iyundagi farmoyishiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasidagi Jahon ta'lim dasturining to'rtinchi bosqichini amalga oshirish bo'yicha milliy komissiya tashkil etilgani dolzarb va tarixiy ahamiyatga egadir.

Milliy komissiyani tuzishdan ko'zlangan asosiy maqsad barcha uchun universal bo'lgan huquqni himoya qilish normalari va tamoyillari, inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilishning xalqaro kafolatlari to'g'risidagi xabardorlikni, shuningdek ushbu yo'nalishdagi ishlar samaradorligini yanada oshirishdir.

Prezident farmoyishida Milliy komissiyaning barcha vazifa va vakolatlari aniq belgilab berilgan. Jumladan, xalqaro shartnomalar normalari va standartlari, BMTning huquqni himoya qiluvchi tuzilmalari tavsiyalari hamda O'zbekiston jamiyatining tarixiy, milliy va madaniy qadriyatlarini inobatga olgan holda Inson huquqlari sohasidagi milliy ta'lim dasturini ishlab chiqish masalasi kun tartibiga qo'yilgan.

Davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, ta'lim muassasalari aholi orasida umuminsoniy qadriyatlar, inson huquqlarini hurmat qilish va rioya qilish tamoyillarini ommalashtirishga, shuningdek fuqarolarning huquqiy axborotdan foydalanishini ta'minlash jarayoniga keng jalb etildi. Bu jarayonda ta'lim tizimini kengroq jalb etishda aynan jurnalistikaning o'rni va roli nechog'lik yuqori ekanligini ko'rish mumkin.

Albatta, fuqarolik jamiyati va ta'limda jurnalistikaning o'rnini yana bir jihat bilan tilga olsak bo'ladi, ya'ni uning mavjudligi sabab inson har tomonlama kuchli fikrlash qobiliyatiga ega bo'ladi, siyosiy, ma'naviy va ma'rifiy jihatdan shakllanadi. Birgina siyosiy qarashlarning shakllanishini olaylik. Bu shakllanish avvallari asosan gazetalar orqali ta'sir qilar edi, bugun esa barcha ommaviy axborot vositalari orqali o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Ta'kidlash lozimki, ilgari maktablarda dars boshlanishidan avval besh daqiqalik "siyosiy axborot" – gazetalar sharhi o'tkazilar edi. Katta avlodning siyosiy yetukligiga shu ham sabab bo'lgandir, balki. Zero, har doim siyosiy tuzumning o'zgarishi va qayta qurish jarayonlari odamlarga islohotlar mazmun-mohiyatini tushuntirish orqali kechgan. Va bunda bosh rol ni aynan matbuot o'ynagan. Tarixga nazar solsak, bunga yetarlicha misollarni ko'rish mumkin.

Jurnalistika deganda bugun ko'pchilikning ko'z o'ngida aynan ijtimoiy tarmoqlar yoxud internet jurnalistikasi keladi. To'g'ri, bugun ular butun hayotni qamrab olgan, ammo ba'zan esa noto'g'ri axborotlarning tarqatilayotganligining ham guvohi bo'lib kelyapmiz. Shunday ekan, har bir ommaviy axborot vositasining fuqarolik jamiyatidagi o'rni va roli borligini unutmasligimiz shart.

Keyingi yillarda O'zbekistonda so'z va matbuot erkinligini ta'minlash uchun ochiq maydon yaratildi. Bunday imkoniyatdan foydalanish yo'lidagi turli g'ovlar, ma'muriy, norasmiy cheklovlar deyarli olib tashlandi. Jamiyatda har kim o'z fikrini bimalol bildirishi, murojaat va e'tirozlari, taklif hamda shikoyatlarini erkin ifoda etishi uchun zarur huquqiy baza yaratildi va u takomillashtirilmoqda. Tan olish kerak, bugungi kunda jamiyatda auditoriya qamrovi bo'yicha va umuman, kontent reytinglarida nodavlat ommaviy axborot vositalari, xususan, internet saytlari, shuningdek blogerlar yuritayotgan onlayn kanallar yetakchi o'rinlarda turadi. Biz ularning bu

yutuqlaridan faqat xursand bo'lamiz. Shu bilan bir qatorda, bu hali oldimizda qilinadigan ishlar ko'pligini ham anglatadi. Yaxshi tomoni shundaki, mazkur holat plyuralizm mavjudligini anglatadi, bu esa axborot tarqatishda raqobatni kuchaytirib, so'z va fikr erkinligi uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Bu, o'z navbatida, fuqarolik jamiyati qurishning asosiy talablaridan biridir.

Fuqarolik jamiyatida jurnalistikaning o'rnini belgilab berishda jurnalistning ham o'zni bor. Albatta, mamlakatimizda so'nggi yillarda jurnalist kadrlar tayyorlaydigan o'quv dargohlari soni ko'paydi. Shunday ekan, bo'lg'usi jurnalistlarning davlat organlari muassisligida faoliyat yuritadigan tahririyatlar va telekanallarda amaliyot o'tashini tashkil qilish ham dolzarb masalalardan. Bu yerda ular haqiqiy jurnalistik materiallar qanday tayyorlanishini o'rganadi, sohaning negizini tashkil etuvchi bilim va malakalarini oshiradi. Aslida, demokratik fuqarolik jamiyatda jurnalistlarning obro'si anchayin baland. Chunki ular haqiqiy to'rtinchi hokimiyat, davlat va xalq o'rtasidagi o'ziga xos ma'naviy-ma'rifiy ko'priklardan biri hisoblanadi. Binobarin, jurnalist har bir yozayotgan so'zi uchun mas'uliyatni his etadi, xalq, jamiyat oldida javobgar va hisobdor bo'ladi. Blogerda esa mutlaqo boshqacha yondashuv. U ko'p hollarda o'zining shaxsiy fikrini ifodalaydi va bu fikr jamiyatga muayyan ta'sir o'tkazadi. Bu yerda gap jurnalistlarni blogerlar bilan, davlat ommaviy axborot vositalarini xususiylari bilan taqqoslashda emas, asosiysi, bugungi kunda ular o'rtasidagi muvozanatni saqlash. Bunda jurnalistlardan davr talablariga moslashish, mehnat samaradorligini oshirish talab etiladi. Bu esa mamlakatimizning axborot xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilishi, shubhasiz.

Shunday qilib, inson huquqlari ta'limi, davlatning inson huquqlari sohasida xalqaro shartnomalardan kelib chiqib qabul qilingan majburiyatlarini amalga oshirishi bilan bog'liq bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri majburiyati hisoblanadi. Inson huquqlarini o'qitish – fuqarolar yuridik ta'limining tarkibiy qismi hisoblanib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida liberallashtirish va demokratlashtirish jarayoni ketayotgan, huquqiy davlat qurilayotgan hamda adolatli fuqarolik jamiyati shakllantirilayotgan hozirgi sharoitlarda ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida prezidentimiz nutqlaridan iqtibos keltirmoqchiman, "Axborot maydonidagi turli bahs va tortishuvlar, avvalo, haqqoniylik va xolislik tamoyillariga asoslanishi, qonun va odob qoidalar doirasida bo'lishi, shaxsiy g'araz va xusumatga, soxta obro' orttirish usuliga aylanib ketmasligi, inson shaxsi va sha'nini tahqirlashdan yiroq bo'lishi, bunday salbiy holatlarga bizning media maydonimizda mutlaqo o'rin bo'lmasligi kerak".



INSON HUQUQLARI BO'YICHA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY MARKAZI

INSON HUQUQLARI SOHASIDA TA'LIM: XALQARO TAJRIBA VA MILLIY AMALIYOT

Nashr uchun mas'ul
Muharrirlar
Texnik muharrir
Kompyuterda sahifalovchi

M. Tillabayev
M. Palnova, L. Ruzikulova
N. Safarova
A. Jumaniyazov

Chop etishga 2022-yil 26-avgustda ruxsat berildi.

Bichimi: **70x100 1/16**.

«PT Serif» garniturasida ofset usulida chop etildi.

Shartli bosma tabog'i 10,4. Nashr tabog'i 8,6.

Adadi 100 nusxa. 12-buyurtma.

Inson huquqlari bo'yicha
O'zbekiston Respublikasi Milliy markazida chop etildi.
100029, Toshkent, Islom Karimov ko'chasi, 15.